



Optimal Dars jadvali³

Foydalanuvchilar uchun qo'llanma

Buyurtma va murojatlar uchun tel: +998 91 679 96 77

Muallif va ishlab chiquvchi: Erkinjon Islamov Revkatovich

Dasturchi: Erkinjon Islamov Revkatovich

Manzil: Farg'ona v. Yozyovon t. Beruniy m. Yangi chek k. 67 uy.

Elektron quti: e.islamov@yandex.ru

Veb-sayt: www.faoisoft.uz

Farg'ona 2012.

Mundarija

1. Dasturga qisqacha sharx	3
2. Tizimga qo'yiladigan talablar	3
3. Dasturni o'rnatish tartibi	4
4. Dasturni ishga tushirish	4
5. Dastur oynasi.....	5
6. Dasturda ishlash.....	5
1. Ro'yxatlar hosil qilish.....	6
2. Darslarni taqsimlash.....	9
3. Dars jadvalini tuzish	12

1. Dasturga qisqacha sharx

Optimal dars jadvali 3 dasturi ta'lim muassasalarida dars jadvallarini kompyuterda tuzib chiqish uchun juda qulay yordamchi hisoblanadi. Dastur 2009-2012 yillarda Faolsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Dars jadvallarini tuzish uchun yetarlicha funksiyalarni o'zida jamlagan. Dasturda ishlash juda qulay va tushunarlilik bilan qimmatlidir. Dasturning demo versiyasi bepul bo'lib, foydalanuvchilarning dastur bilan tanishishlari uchun ishlab chiqilgan. Demo versiyada dasturning barcha funksiyalari to'g'ri ishlaydi, faqatgina bajarilgan ishlarni saqlab qo'yish mumkin emas. Bundan tashqari demo versiyada sinflar soniga cheklov (sinflar soni 5 tadan ortmaydi) o'rnatilgan. Dastur ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng yuqoridagi cheklashlar olib tashlanadi va u to'laqonli ishlay boshlaydi.

Dastur quyidagi imkoniyatlarga ega:

1. Barcha kiritilgan ma'lumotlarni yagona faylda saqlash;
2. Barcha ma'lumotlarni HTML faylga, Microsoft Word va Microsoft Excel dasturlariga eksport qilish;
3. O'quv rejani Davlat ta'lim standarti tayanch rejasiga binoan avtomatik ravishda tayyorlash;
4. O'quv reja asosida darslarni avtomatik taqsimlash;
5. O'qituvchilarning tarifkatsiyalarini hosil qilish;
6. Kiritilgan ma'lumotlar asosida dars jadalini barcha tartib qoidalar, hususan, sanitariya-gigiyeniya talablariga ko'ra qo'llik va avtomatik usulda tayyorlash;
7. Dars jadvaliga ixtoyoriy vaqtda o'zgartirishlar kiritish;
8. Dars jadvalini baxolash;
9. O'quv jarayonida qaysidir sabab bilan ishga kelmagan o'qituvchining darsini osonlik bilan boshqa o'qituvchiga topshirish;
10. Tayyor dars jadvalini bir necha hil ko'rinishda chop etish uchun tayyorlash;
11. Va yana ko'plab imkoniyatlar.

Qisqacha qilib aytganda, Optimal dars jadvali 3 dasturi dars jadvali tuzishni to'la avtomatlashtiradi hamda, ishni tez, sifatli va mukammal darajada bo'lishi uchun sodda va juda qulay usulni taklif etadi.

2. Tizimga qo'yiladigan talablar

Shaxsiy kompyuter IBM PC

- minimal talab: Pentium-133/24M6/400M6
- optimal talab: Celeron-633/128Mb/2Gb.

Dasturiy ta'minot:

- Microsoft Windows 95/98/Me/2000/XP/7/Vista
- Ovoz drayveri
- Microsoft Office 2000/XP/2003/2010
 - Microsoft Excel 2000/XP/2003/2010 (Xisobotlarni chiqarish uchun),
 - Microsoft Word 2000/XP/2003/2010 (Xisobotlarni chiqarish uchun).

Eslatma: dasturdan foydalanish jarayonida sichqoncha muhim axamiyatga ega.

3. Dasturni o'rnatish tartibi

Dasturdan foydalanish uchun avval uni kompyuterga o'rnatib olish kerak. Dasturni shunchaki diskdan diskga nusxalash yo'li bilan o'rnatib ishlatish mumkin emas. Dasturning maxsus o'rnatgich komponentidan foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturni o'rnatish:

- Urnatgich.exe fayli faollashtiriladi;
- Dasturni o'rnatish uchun joy yani, katalog tanlanadi. Agar hech qanday joy tanlanmasa avtomatik ravishda "*c:/Program files/Faolsoft ta'lim*" jildiga dastur o'rnatiladi.
- Joy tanlangandan so'ng "**O'rnatish**" tugmasi bosiladi.
- Dastur to'g'ri o'rnatilganda bosh menyuda "*Faolsoft ta'lim*" nomli katalog xosil bo'ladi: "*Пуск- Все программы- Faolsoft ta'lim*". Ishchi stolga ham dasturning yorlig'i chiqib qoladi.

4. Dasturni ishga tushirish


Dastur to'g'ri o'rnatilganda Windows ishchi stolida (Пуск menyusida) "*Faolsoft ta'lim*" nomli katalog paydo bo'ladi va unda quyidagi elementlar joylashadi.

- «Optimal Dars jadvali 3» – dasturni ishga tushirish uchun;
- «Foydalanuvchi qo'llanmasi» – Word hujjati;
- «Ma'lumotnoma» – Dastur ma'lumotnomasi.

Dasturni ishga tushirish uchun sichqonchaning chap tugmasi birin ketin quyidagilar tanlanadi: *Пуск* → *Все программы* → *Faolsoft ta'lim* → *Optimal dars jadvali 3*

5. Dastur oynasi

Dasturning ishchi oynasi Windowsning standart oynalari kabi ochiladi. Oynada menyu buyruqlari, tugmachalar va klaviatura yordamida ish olib borish mumkin.



1-rasm. Dasturning asosiy oynasi ko'rinishi.

Dasturning asosiy oynasini foydalanuvchi o'z xoxshiga ko'ra sozlab olishi mumkin.

6. Dasturda ishlash

Dasturda ishlash chapdan o'ngga qarab boradi. Bunda har bir qadamda ma'lumotlar kiritib boriladi. Ish ketma-ketligi buzilmasligi tavsiya etiladi, lekin bu shart emas.

Bajariladigan ishlar ketma-ketligi:

1. Ro'yxatlar hosil qilish

- Sinflar ro'yxatini tayyorlash;
- Fanlar ro'yxatini tayyorlash;
- O'quv xonalar ro'yxatini tayyorlash;
- Ustoz ro'yxatini tayyorlash;
- O'quvchilar ro'yxatini tayyorlash (zarur bo'lsa, bu ro'yxat dars jadvali uchun ahamiyatsizdir);

2. Darslarni taqsimlash

- Davlat ta'lim standartining tayanch o'quv rejasini tayyorlash;
- O'quv rejani tayyorlash;
- Darslar ro'yxatini tayyorlash.


3. Dars jadvalini tuzish

- Qo'llik usulda dars jadvalini tuzish;
- Avtomatik usulda dars jadvalini tuzish;
- Dars jadvalini taxrirlash;
- Tayyor dars jadvalini chop etish.

1. Ro'yxatlar hosil qilish

Sinflar ro'yxatini tayyorlash

Sinflar ro'yxati sinflarni ro'yxatga qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun *Ro'yxatlar* → *Sinflar* sahifasidan  tugmacha yoki, **Insert** tugmasi bosiladi. Hatijada quyidagi oyna paydo bo'ladi:



Sinf(lar)

Kunlik dars soni
Kamida: 4 Ko'pi bilan: 6 O'quvchi soni: 30 Navbat: 1

Ish soatlar

Toq hafta

#	Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
9							
10							
11							
12							
13							
14							

Juft hafta

#	Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
9							
10							
11							
12							
13							
14							


Ok Chiqish

2-rasm. Yangi sinf qo'shish oynasi

Bu oynaga kerakli parametrlar kiritiladi va **Ok** tugmachasi bosiladi.

Fanlar ro'yxatini tayyorlash

Fanlar ro'yxati yangi fanni ro'yxatga qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun **Ro'yxatlar** → **Fanlar** saxifasidan  tugmacha yoki, **Insert** tugmasi bosiladi. Hatijada quyidagi oyna paydo bo'ladi:




3-rasm. Yangi fan qo'shish oynasi

Bu oynaga kerakli kattaliklar kiritiladi va **Ok** tugmachasi bosiladi. Bundan tashqari fanlar ro'yxatini  tugmachani yoki **F7** tugmasini bosish yordamida avtomatik ravishda yaratish mumkin.

O'quv xonalar ro'yxatini tayyorlash

Xonalar ro'yxati yangi xonani ro'yxatga qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun **Ro'yxatlar** → **Xonalar** saxifasidan  tugmacha yoki, **Insert** tugmasi bosiladi. Hatijada quyidagi oyna paydo bo'ladi:




4-rasm. Yangi xona qo'shish oynasi

Bu oynaga kerakli kattaliklar kiritiladi va **Ok** tugmachasi bosiladi.

Ustozlar ro'yxatini tayyorlash

Ustozlar ro'yxati yangi ustozni ro'yxatga qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun **Ro'yxatlar** → **Ustozlar** saxifasidan  tugmacha yoki, **Insert** tugmasi bosiladi. Hatijada quyidagi oyna paydo bo'ladi:



Ustoz qo'shish

Asosiy ma'lumot Qo'shimcha ma'lumot

Familia I.Sh. +≡ Lavozimi

Asosiy fani Asosiy xonasi

☐ Bo'sh joylarni taqiqlashni bekor qilish ☐ Uslubiy kun(lar)

☐ Du ☐ Se ☐ Ch ☐ Pa ☐ Ju ☐ Sh

Ish vaqti

☒ Toq=Juft

Toq hafta Juft hafta

#	Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
9							
10							
11							
12							
13							
14							

Ok Chiqish

5-rasm. Yangi ustoz qo'shish oynasi


Bu oynaga kerakli kattaliklar kiritiladi va **Ok** tugmachasi bosiladi.

Ustoz qo'shish oynasidagi **Qo'shimcha ma'lumot** saxifasida kiritilayotgan ustozning dars jadvaliga umuman aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar kiritiladi. Masalan, ustozning tug'ilgan yili, jinsi, tamomlagan o'quv yurti, manzili, telefon nomeri, elektron qutisi haqidagi ma'lumot va hokazo. Shuning uchun **Qo'shimcha ma'lumot** saxifasidagi ma'lumotlarni kiritish ikkinchi darajali ish hisoblanadi.

O'quvchilar ro'yxatini tayyorlash

O'quvchilar ro'yxati odatda faqatgina ma'lumot sifatida dasturda saqlanadi. Uning bor yoki yo'qligi dasturning ishiga hususan dars jadvali tuzishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun o'quvchilar ro'yxatini kiritish ikkinchi darajali ish hisoblanadi.

O'quvchilar ro'yxati yangi o'quvchini ro'yxatga qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun **Ro'yxatlar** → **O'quvchilar** saxifasidan  tugmacha yoki, **Insert** tugmasi bosiladi. Hatijada quyidagi oyna paydo bo'ladi:



6-rasm. Yangi o'quvchi qo'shish oynasi


Bu oynaga kerakli kattaliklar kiritiladi va **Ok** tugmachasi bosiladi.

2. Darslarni taqsimlash

Davlat ta'lim standartining tayanch o'quv rejasini tayyorlash

Tayncha o'quv rejani yaratish o'quv rejani tayyorlashda parallel sinflar uchun bir hil ma'lumotlarni qayta-qayta kiritishning oldini oladi. Tayanch o'quv rejani hosil qilish uchun

Yuklamalar → **O'quv reja** saxifasidan  tugmacha yoki **F7** tugmasi bosiladi. Natijada quyidagi muloqot oynasi paydo bo'ladi:



7-rasm. Tayanch o'quv rejaga o'tish oynasi

Bu oynada **DTS** tugmasi bosiladi va natijada Davlat ta'lim standartining tayanch o'quv rejasini tayyorlash uchun maxsus oyna ochiladi, Bu oyna quyidagi ko'rinishda hosil bo'ladi:

O'quv rejani tayyorlash

O'quv reja odatda darslarni taqsimlayotganda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ya'ni, taqsimlangan darslarni o'quv reja bilan solishtirib tekshirish mumkin, yoki o'quv reja asosida darslarni avtomatik ravishda taqsimlash imkoniyati ham mavjud bo'ladi.

O'quv rejani yaratish uchun **Yuklamalar** → **O'quv reja** saxifasi ochiladi.

			Jami:	32	32	32	33	33	35	35	35	37	37
N°	Ta'lim soxasi	Fan nomi	341	5-A	5-B	5-D	6-A	6-B	7-A	7-B	7-D	8-A	8-B
1	Filologiya	Ona tili	38	5	5	5	4	4	3	3	3	3	3
2	Filologiya	Adabiyot	28	4	4	4	3	3	2	2	2	2	2
3	Filologiya	Chet tili	30	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
4	Filologiya	Rus tili	20	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2
5	Ijtimoiy bilimlar	Tarix	15	2	2	2	2	2	1	1	1	1	1
6	Ijtimoiy bilimlar	O'zbekiston tarixi	5						1	1	1	1	1
7	Ijtimoiy bilimlar	Milliy ist. g'oya.	2,5						0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
8	Ijtimoiy bilimlar	Huquq	2									1	1
9	Ijtimoiy bilimlar	Iqtisod	2									1	1
10	Matematika	Matematika	25	5	5	5	5	5					
11	Matematika	Algebra	15						3	3	3	3	3
12	Matematika	Geometriya	10						2	2	2	2	2
13	Matematika	Informatika	20	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2
14	Tabiiy bilimlar	Fizika	14				2	2	2	2	2	2	2

O'quv reja Darslar Tarifikatsiya

Hammasi: 10 ta

10-rasm. O'quv reja

O'quv rejani tayyorlashning ikki hil usuli mavjud: qo'llik va avtomatik usullar. Qo'llik usulda o'quv rejaning har bir elementi qo'lda kerakli katakchaga kiritib chiqiladi. Bunda parallel sinflardan bittasining o'quv rejasini tayyorlab boshqalariga nusxalash imkoniyati mavjud. Bu imkoniyat ishini tez bajarishga yordam beradi. Agar tayanch o'quv reja oldindan tayyorlangan bo'lsa, u holda o'quv rejani shu tayanch o'quv reja asosida avtomatik ravishda

yaratish mumkin. Buning uchun **Yuklamalar** → **O'quv reja** saxifasidan  tugmacha yoki **F7** tugmasi bosiladi va hosil bo'lgan muloqot oynasidan (7-rasm) **Ha** tugmasi bosiladi.

Darslar ro'yxatini tayyorlash

Darslar ro'yxati yangi darsni ro'yxatga qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun **Yuklamalar** → **Darslar** saxifasidan  tugmacha yoki, **Insert** tugmasi bosiladi. Hatijada quyidagi oyna paydo bo'ladi:

Dars qo'shish

Sinf(lar):

Dars juftligi:

Guruh(chalar):

Guruhchalar soni: ☐ Hammasi bir vaqtda bo'ladi (D*- daftar tekshirish)

Fan: O'qituvchi: Xona(lar): Taqiq fan: Dars: D*: ☐

1 - - - - - Qo'lda topshiriladi - - - - -

Xatolik soat:

11-rasm. Dars qo'shish oynasi

Bu oynadan kerakli kattaliklar Tanlanadi va **Saqlash va nusxalash** tugmachasi yoki **Saqlash va yopish** bosiladi.

Eslatma: Darslar ro'yxati tayyor bo'lgandan so'ng **Yuklamalar** → **Tarifikatsiya** saxifasida har bir o'qituvchining tarifikatsiyasini ko'rib chiqish va chop etish imkoniyati paydo bo'ladi.

3.Dars jadvalini tuzish

Dars jadvalini tuzish uchun **Dars jadvali** → **Sinflar** saxifasi ochiladi:

Dars jadvali3 - Optimal Dars jadvali

Fayl Sozlash Ma'lumot

Ro'yxatlar Yuklamalar Dars jadvali Almashtirishlar

Sinflar Ustozlar Xonalar Maktab

Sinf:

	Dushanba - 0	Seshanba - 0	Chorshanba - 0	Payshanba - 0	Juma - 0	Shanba - 0
1						
2						
3						
4						
5						

Nº	Sinf	Soat	Juftligi	+	#	Fan	Ustoz	Xona	Taqiq fan	Dars
1	5-B	0/5	Agar			Ona tili	Xayrullaye...	2		-
2	5-B	0/4	Agar			Adabiyot	Yo'ldashe...	3		-
3	5-B	0/3	Agar	+	1	Chet tili	Dadajono...	4		-
		0/3			2	Chet tili	Toshmato...	16		-
		0/3			3	Chet tili	Qo'shmato...	21		-
4	5-B	0/2	Agar			Rus tili	Fayzullaye...	20		-
5	5-B	0/2	Agar			Tarix	Saydamet...	21		-
6	5-B	0/5	Agar			Matematika	Temirov A.	22		-

5-A 5-B 5-D 6-A 6-B 7-A 7-B 7-D 8-A 8-B


Hammasi: 10 ta

12-rasm. Dars jadvali tuzish oynasi

Bu oynada dars jadvalini tuzish, qulflash, tekshirish, baxolash, taxrirlash va chop etish mumkin. Oyna ikki qismdan iborat bo'lib ular yuqori va quyi qismlardir. Yuqori qismda dars jadvali tuziladi, quyi qismda esa darslar ro'yxati turadi. Quyi qismidagi qizil rangli darsning chala qismi bo'ladi. Yashil rangli dars esa to'liq jadvalga tushib bo'lganligini bildiradi.


Dars jadvalini qo'llik usulda tuzish

Dars jadvalini qo'llik usulda tuzish darslarni sichqoncha yordamida kerakli joyga sudrab olib borish bilan amalga oshiriladi. Bunda joriy sinfning darslari oynaning quyi qismidagi ro'yxatda joylashgan bo'ladi. Ro'yxatdan qo'yilmagan darsni sichqoncha bilan ushlab bo'sh turgan (yashil rangli) joyga olib borib qo'yiladi:




13-rasm. Darsni jadvalga qo'yish

Darsni ushlab bo'sh katakchaga olib borilganda holat qatorida **OK** yozuvi paydo bo'ladi, shu vaqtda sichqoncha tugmasi qo'yib yuborilsa dars aytilgan joyda joylashadi. Barcha darslarni shu yo'l bilan jadvalga joylab chiqish mumkin. Buning qulayligi shundaki har bir dars tanlanganda uni qayerga qo'yish mumkinligi ranglar yordamida ajratib ko'rstib turiladi. Standart holda ranglar quyidagi ma'nolarni bildiradi:

№	Rang	Ma'nosi
1		Bo'sh joyni bildiradi ya'ni, bu yerga dars qo'yish mumkin.
2		Shu rangli katak ichiga agar ustozning nomi yozilsa ustozning ish vaqti emas, agar sinfning nomi yozilgan bo'lsa, sinfning ish vaqti emasligini bildiradi. Ya'ni bu joyga dars qo'yish mumkin emas.
3		Joriy darsni bildiradi.
4		Tanlangan darsni o'tuvchi ustozning boshqa dars bilan bandligini bildiradi.
5		Tanlangan dars o'tiladigan xonaning boshqa dars bilan bandligini bildiradi.
6		Tanlangan darsni o'tuvchi ustozning uslubiy kuni ekanligini bildiradi.

Dars jadvalini avtomatik usulda tuzish

Dars jadvalini avtomatik ravishda tuzish uchun  tugma bosiladi va natijada quyidagi oyna ochiladi:



Jadvalni xisoblash ustasi

Izlash: Avtomat

Boshlash

To'xtatish

Qabul qilish

Vaqt: 00:00:11

Sanoq: 48

Sinflar jadvali jarimalari

- Qo'yilmagan darslar: 13 (9)
- Kunlik eng kam darslar: 14 (12)
- Kunlik eng ko'p darslar: 0 (0)
- Darchalar (bo'sh joylar): 0 (0)
- Birinchi va oxirgi darslar: 0 (0)

Ustozlar jadvali jarimalari

- Qo'yilmagan darslar: 13 (9)
- Darcha (bo'sh joy): 21 (6)
- Ketma-ket bo'sh joylar: 14 (2)
- Bir kunda bitta dars: 14 (22)
- Bir kunda turli binolar: 0 (0)

Sanitariya gigiyeniya qoidalari uchun jarimalar

- 1-7 sinflarda kunlik eng yuqori yuklama SESHANBA kundan to PAYSHANBA kungacha tushmagan hollar: 2 (1)
- 8-9 sinflarda kunlik eng yuqori yuklama SESHANBA kundan to JUMA kungacha tushmagan hollar: 0 (1)
- Eng qiyin darslar kunning chagaralariga tushgan hollar: 17 (17)

Jadval qiymati: -26960 (-18730)


Chiqish

14-rasm. Dars jadvalini hisoblash va avtomatik tuzish oynasi

Bu oynada dars jadvalining jarimalar bo'yicha hisobi ko'rinadi va jadvalni avtomatik hisoblash uchun maxsus tugmalar mavjud. Avtomatik hisoblashda maxsus algoritim yordamida darslar jadvalga qo'yib chiqiladi. Dars jadvali avtomatik usulda tuzilayotganda oldindan qulflab qo'yilgan darslar o'z joyida o'zgarishsiz qoladi, boshqa darslarning o'rni yangisi bilan almashtiriladi. Tayyor bo'lgan jadvalning baxosi ko'rsatiladi. Jadvalning baxosini borgan sari yaxshilab borish imkoniyati mavjuddir.

Dars jadvalini taxrirlash


Dasturda jadvalni taxrirlash juda qulay usulda amalga oshirilishi dasturning qiymatini yana ham oshiradi. Jadvalni taxrirlash uchun taxrirlanishi lozim bo'lgan dars ustiga sichqonchaning o'ng tugmachasi bosiladi, hosil bo'lgan kontekstli menyudan kerakli buyruq tanlanadi. Kontekstli menyu buyruqlari yordamida darsni jadvaldan o'chirish, darsni qulflash va dars o'tiladigan xonani almashtirish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari jadvaldagi darslarni boshqa joyga sudrab olib borish imkoniyati ham mavjud:



14-rasm. Darsning joyini o'zgartirish

Dars jadvalini chop etish

Tayyor bo'lgan dars jadvalini bir necha hil ko'rinishda chop etish uchun Microsoft Excel yoki Microsoft Word dasturlariga hamda, HTML faylga eksport qilish mumkin. Sinflar, ustozlar va o'quv xonalarining dars jadvalini chop etish mumkin. Dars jadvalini chop etish uchun **Dars jadvali** → **Sinflar** saxifasida  tugmasini yoki **Ctrl+P** tugmalarini birgalikda bosish kerak, natijada chop etish oynasi paydo bo'ladi:



15-rasm. Chop etish oynasi

Sinflarning dars jadvalining Microsoft Excel dasturiga qilingan eksportining bir turi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

Kun	#	Vaqt	5-A		5-B		5-D		6-A
			Fan	Xona	Fan	Xona	Fan	Xona	Fan
Du	1	8:00	Rus tili Fayzullayev Q.H.	1	Odobnoma Miryobubov E.R.	15	Ona tili Xayrullayev B.I.	2	Jismoniy tarbiya Xoltojiyev N.D.
	2	9:00	Musiq Vakant	21	Jismoniy tarbiya Xoltojiyev N.D.	23	Odobnoma Miryobubov E.R.		Rus tili Fayzullayev Q.H.
	3	10:00	Tarix Saydamatova Sh.Ch.	4	Biologiya Satira opa	6	Adabiyot Yo'ldashev H.J.	3	Mexnat Egamberdiyev J.
	4	11:00	Tarix Saydamatova Sh.Ch.	4	Tasviriy san'at To'xtasinov X.Z.	25	Matematika Temirov A.		Adabiyot Yo'ldashev H.J.
	5	12:00	Ona tili Xayrullayev B.I.	4			Matematika Temirov A.		
			Matematika Temirov A.				1. Chet tili Dadajonov G.L.		

16-rasm. Excelga eksport qilingan dars jadvalining ko'rinishi

Dars jadvali eksport qilingandan so'ng uni bemalol qog'ozga chop etish mumkin.